

*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*

*“O'zbek va xorijiy tillar” kafedrası*

*katta o'qituvchi Sh.H.Yusupalieva*

## **CHET TILNI DARSLARINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISH PEDAGOG FAOLIYATINING MUHIM OMILI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola chet til amaliy mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish talabalarda idrok va hotira, diqqat –e'tibor va tafakkur, tafakkur va mantiqni birlashtirib qolmasdan, ularda o'qishga ishtiyoq, o'zidan mamnunlik va kelajakka ishonchini yanada orttiradi va o'z sohasining yetuk muttaxassisi bo'lib yetishish o'qituvchuning o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bilim, ko'nikma, malaka, muloqot, mutolaa, shakllantirish, tushunish, kasb mahorat, taraqqiyot, rivojlanish.

**Annotation.** This article discusses the effective organization of foreign language practical classes in students without combining perception and warmth, attention and contemplation, contemplation and logic, enthusiasm to study in them, increased self –satisfaction and confidence in the future, and the growing role of the educator as a mature specialist in their field.

**Keywords:** knowledge, skills, qualification, communication, reading, forming, understanding, profession skill, development, development.

**Аннотация.** В статье рассматривается, как эффективная организация практических занятий по иностранному языку не только объединяет восприятие и память, внимание и мышление, мышление и логику у студентов, но и повышает у них страсть к учебе, самодовольство и уверенность в своем будущем, а также помогает им стать зрелыми практиками в своей области.

**Ключевые слова:** знания, навыки, квалификация, общение, чтение, формирование, понимание, профессиональное мастерство, прогресс, развитие.

Fan texnika va taraqqiyot rivojlangan sari chet tilini o'qitish va o'zlashtirishga bo'lgan talab oshmoqda. Bu esa har bir chet til o'qituvchusiga va har bir pedagogni zimmasiga katta ma'suliyat, ya'ni talabalarda yangi bilim va ko'nikmalarni hamda yangicha qarashlarini shakllantirish, boshqacha qilib aytganda yangicha ta'lim berishni yuklaydi va pedagogik jarayonni yangilashni taqozo etadi.

Har bir chet til o'qituvchisi yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta'lim tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish hislatlariga ega bo'lishi kerak. U o'z faoliyatida chet tilni chuqur bilishi, iqtidorli, zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning chuqur tushuna bilishi, dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini keng nuqtai nazardan anglay olishi va kompyuter hamda internet vositalaridan ta'lim jarayonida foydalana olishi lozim.

Ma'lumki, tafakkurning ifodasi, xalqlar o'rtasidagi aloqa, ma'naviy va boshqa muloqotlar til orqali namoyon bo'ladi. O'qituvchi darsni tashkillashtirishda va ta'lim samaradorligini oshirishda o'quv materialini hususiyatlariga, ta'lim usullariga va o'quv imkoniyatlariga e'tibor qaratishi lozim. Bu esa o'z navbatida dars davomida turli hil rolli o'yinlar va pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimi ga keng joriy qilishni taqozo qiladi va chet til o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'z aksini topishi chet til o'qitish saviyasini o'stiradi.

Ta'lim va tarbiyani kelishish va ularning o'zaro bog'liqligi, uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlashda izchillikni ta'minlash, shuningdek samarali shakllar va usullarni, yangi qo'shimcha matnlar o'qitish texnologiyasi metodikasini joriy etish va shu kabi boshqa ilg'or ta'lim uslublaridan keng foydalanish ijobiy natijalar garovidir. Chet tilida munosabatlar shartlari nutq, qo'shimcha kasbiy matnlar o'rganishning ko'plab turlarini bilish davr talabi ekanligini ko'rsatib beradi. Boshqa tillar mohiyatini kamsitmagan holda, ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilishda, til nutqini tushunish, mutolaa qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo'yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o'qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislar, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi va aniqlanadi. Shuningdek ushbu metod va

texnologiyalar til o'rganuvchining chet tilda, jumladan, ingliz tilida fikrini erkin bayon qilish, izlanish va til ko'nikmalarini shakllantirish xorijiy adabiyotlarni mutoala qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi

O'quv jarayoniga yo'naltirilgan qo'shimcha matn dasturlari qo'llanilishi ingliz tili o'qitish masalasini munosib ravishda hal etishga yaxshi imkon beruvchi metodik yondashuvlarning biridir.

O'qituvchi bilan talabaning o'zaro ta'siri natijasida talaba ma'lum bilimlarni shunchaki o'zlashtirib qolmay, bir vaqtning o'zida yana bilish va hatti harakatlar qilishning yangi tamoyillarini va metodlarini o'zlashtirib oladi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Fan texnika va taraqqiyot rivojlangan sari chet tilini o'qitish va o'zlashtirishga bo'lgan talab oshmoqda. Bu esa har bir chet til o'qituvchusiga va har bir pedagogni zimmasiga katta ma'suliyat, ya'ni talabalarda yangi bilim va ko'nikmalarni hamda yangicha qarashlarini shakllantirish, boshqacha qilib aytganda yangicha ta'lim berishni yuklaydi va pedagogik jarayonni yangilashni taqozo etadi.

Tushunchalar va hatti harakatlarning shakllanishi o'qituvchi boshqarib boradigan asosiy mashgu'lot turi amaliy mashg'ulot bo'lib. Uni o'kazish metodikasi chet til o'qituvchisidan pedagogik tajriba va mahorat talab qiladi.

Bu jarayon har bir til o'qituvchisidan tinmay izlanish va o'rganishni, kasb mahoratini, til ko'nikmalarini uzluksiz shakllantirib borishni va har doim yangilikka va yuksaklikka intilishini taqozo qiladi va kasbiy pedagogik faoliyatini chuqur egallaganligi bilan belgilanadi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar muloqotini osonlashtiradigan ta'limiy ikki tillilik vaziyatlarini yaratishdir. Talabalar og'zaki nutqini faollashtirishning eng yaxshi metodlari o'zaro ta'sir metodlari, ya'ni interfaol metodlardan bo'lib, interfaol ta'lim bilish usulidir, u faqat talabalarning birgalikdagi faoliyati shartida amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim talabalarning o'zaro munosabatlari va ularning psixologiyasiga asoslangan tajriba sohasi bo'lgan o'quv muhitiga asoslanadi.

Bu esa o'z navbatida chet til amaliy mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish talabalarda idrok va hotira, diqqat –e'tibor va tafakkur, tafakkur va mantiqni birlashtirib qolmasdan, ularda o'qishga ishtiyoq, o'zidan mamnunlik va kelajakka

ishonchini yanada orttiradi va o'z sohasining yetuk muttaxassisi bo'lib yetishishiga zamin yaratiladi. Zero, Vatanimiz kelajagi shu talaba- yoshlar qo'lida ekan ularga zarur bilimlarni berish har bir pedagogning burchi hamdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Baymanov Habibullo Abdullayevich, Avlakulov Avazbek Ismoilovich, Sattorova Sattorova Tojimatovna, Raximov Fazliddin Rustamovich, Qalandarova Sofiya Toxirovna, Sattorov Hayrulla Razzoqovich//Italiya. Philosophical Readings// Realization of color-expressive quality lexemes in phraseology (on the example of German and Uzbek languages)// XIII.4 (2021), pp. 1849-1858. 1849
2. Muminova Maftuna Alijonovna Yusupalieva Shakhnoza Khakimjanovna ,Sattorova Saodat Tojimatovna \\ "India Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal\\ Syntactic functions and patterns of combinability of adverbs ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 7, ISSUE 1, Jan. -2021 P. 176-178
3. Сатторова Саодат Тожиматовна \\ Актуальной филологии научный журнал \\ Чет тил таълим жараёнида индивидуаллаштириш хусусиятлари\\2021 йил № 1 С.50-59 elektronniy jurnal  
<https://ruslit.jspi.uz/index.php/ruslit/article/view/737>
4. Shoxobiddinova Dilnoza Maxmudovna, Boboev Y.\\ india EPRA international journal of Research & development\\ 2021 aprel Specificite del'organisation et du contenu du cours de francais a des fins speciales dans l'institut textile \\Volume -6 2021 aprel P.147-152
5. Yusupalieva Sh, Sattorova S \\Indoneziya International journal of discoveries and innovations in applied sciences\\ THE IMPORTANCE OF SPEAKING IN EFL CLASSES\\Volume 1 Issue 4, 2021 P.63-65
6. Yusupova Sanobat Tursunbayevna, Nishonova Dilfuza Xomidovna, Sattorova Saodat Tojimatovna\\ Uzbekistan International Journal of Discourse on

Innovation, Integration and Education (IJDIE)\\ Til o'rgatishda kommunikativ  
tinglab tushunishning ahamiyati\\ Vol. 3 No. 2 (2021): IJDIE p.18-20